

Iqtisdiyot va Pedagogika universiteti, filologiya fakulteti;

Ilmiy rahbar: M Abdullayeva

Tayyorlovchi: Tojimatova Gulzoda Shuxratbek qizi

Telefon raqam: +998 91 483 27 35

Elektron pochta manzili: tojimatovagulzoda@gmail.com

Annotsiya: Ushbu maqolada Uvays Qaroniy xaqida tahlil qilingan bo'lib, islom olamidagi ilmiy-ma'naviy, axloqlari, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) va sahobalarining u kishi haqida aytgan so'zlarini batafsil yoritib beramiz. Bundan tashqari, olimning bugungi islom olamida tutgan o'rni va uning nomi haligacha musulmon xalqlar orasida qadrlanishi va alohida hurmatda bo'lising sabablari o'rganiladi va chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xayoti, taffakuri, islom, ma'rifat.

Kirish

Ushbu maqolani Umar Ibn Xattobning Uvayz haqida aytgan rivoyati bilan boshlamoqchiman.

"Men Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning: "Albatta, tobe'inlarning yaxshisi Uvays deb ataladigan kishidir. Uning voldasi bor. Unda oqliq bor edi. Unga amr qilinglar. Sizlarga duo qilsin" dedilar".

UVAYS QARONIY (657)-sufiylikdagi uvaysiya tariqati asoschisi. Muhammad s.a.v davrlarida yashagan bo'lsa ham u zot bilan uchrashmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Muhammad s.a.v Uhud tog'i etagidagi jangda muborak ikki tishlaridan

ajralganida bundan xabar topgan Uvays Muhammad sallallo alayhi vasallamga bo'lgan yuksak hurmati yuzasidan, ul zotga dushmanlar yetkazgan sitamni o'zida sinash maqsadida avval bir tishini, so'ngra shubhaga o'rin qolmasligi uchun o'zining barcha tishlarini sug'urib olgan. Muhammad s.a.v unga sahabalar qatoriga qo'shilishini taklif etgan. Muhammad sallallohu alayhi vasallam vafotlari oldidan hazrati Aliga xirqalarini Uvays Qaroniyga topshirishini vasiyat qilgan.

Muhammad sallallohu alayhi vasallam go'yo Uvaysning Umar ibn al-Xattob huzuriga kelishini bashorot qilganlar va Uvays musulmon jamiyatidagi uning do'sti (xalil) va o'zidan keyingi avlodning eng yaxshi insoni ekanligini aytganlar. Bu gaplar "Tazkirat ul-avliyo Attora"da batafsil bayon qilingan.

Islom olamida Rasulullohga s.a.v g'oyibona oshiq bo'lganlarning sardori sifatida mashhur bu zot «Abu Amr» kunyasi bilan tanilgan. Rivoyatlarga ko'ra, uning otasi Omir yamanlik bo'lib, Murod qabilasining qarn urug'iga mansub edi. Hazrati Uvays "muhazramlar"dan edi. Hadis istilohiga ko'ra, "muhazram" johiliya davrini ko'rgan, Payg'ambarimizning hayotlik davrlariga yetishgani holda, u zot bilan ko'risha olmay, g'oyibona imon keltirgan kishidir.

Sahobai kiromning ko'plari bilan ko'rishgan Hazrati Uvays tobeinlarning ulug'laridan. Chunonchi Hazrati Umar ibn Xattobdan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v) ora-sira

Yaman tarafga yuzlarini burib, bunday der edilar: "Yaman tomonidan rahmat shabadalari esmoqda. Ehson va ezzulikda tobeinlarning eng yaxshisi Uvays Qaraniydir".

Asosiy qism

Uvays Qaroniy Muhammad Payg'ambar (s.a.v) davrlarida yashab o'tgan. Bu avliyo odam o'zining butun umrini dunyo bo'ylab sayohat va islomni targ'ibot qilish bilan o'tkazgan. Uvays Qaroniyning umri va o'limi ko'plab afsonalarga sabab bo'lgan. Aytishlaricha uning Siffa jangida o'limidan so'ng yettita sulton Qaroniyni kim dafn etishini hal qila olishmagan ekan. Har bir sulton tobut tayyorlab qarashsa ularning har birida avliyo yotgan ekan.. Musulmon olamida Qaroniy dafn etilgan bir necha joy mavjud. Shunday joylardan biri Namangan viloyatining Chortoq tumanida joylashgan. Afsonaga ko'ra, u bu yerlarga islomni targ'ibot qilish uchun kelgan. Bundan tashqari Qaroniyning onasi ham shu yerda dafn etilgan deyishadi. U o'layotgan vaqtida avliyo uni yuvish uchun ancha vaqt suv topa olmagan ekan, shunda Qaroniy allohdan suv so'rab murojaat qilib qo'li bilan quruq yerga uradi u urgan joyda muqaddas buloq paydo bo'ladi.

Muslim rivoyat qilgan.

Uvays al Qaroniy roziyallohu anhu xokisor odam bo'lgan ekanlar. U kishi o'zlarini juda ham kamtarona tutganlaridan ko'pchilik e'tibor bermas ekanlar. Ba'zi birlar esa masxara ham qilar ekan. Ushbu rivoyat ham o'sha Uvays al Qaroniy roziyallohu anhuni masxara qilganlardan birining sababidan vorid bo'lgan ekan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o'zlarini ko'rmagan odam haqida axborotlar berishlari mo'jizadir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sahobarlarga Uvayz Al Qaroniy roziyallohu anhuning duolarini olishga targ'ib qilishlari u kishining fazllariga dalolat qiladi.

Usayr ibn Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. "Ahli Ko'fa Umarning oldiga hay'at bo'lib keldilar. Ularning ichida Uvaysni masxara qiladigon bir kishi bor edi. Bas, Umar, "Bu yerda qaroniylardan birorta bormi?" dedi. Haligi odam keldi. Bas, Umar unga "Batahqiq , Rasululloh sollallohu alayhi vasallam , sizga Yamandan bir odam keladi. Uni Uvays deydilar. Yamanda bittagina onasidan boshqani qoldirmagan bo'ladi. Unda oqlik bor edi. Bas, Allohga duo qilgan edi. Undan o'shani ketkazdi. Faqat bir dinorcha yoki dirhamcha joy qoldi, xolos. Sizdan kim unga yo'liqsa , bas, u sizlarga istig'for aytishini so'rasisin dedilar ", dedi".

Muslim rivoyat qilgan.

Haqiqiy valiyalar shundoq bo'ladilar. Ular o'z fazllarini ommadan berkitadilar. Uvays al Qaroniy roziyallohu anhu ham o'shalardan edilar. Odamlar u zotning valoyatlarini bilib qolganlardan keyin boshlarini olib, cho'lu sahrolarga chiqib ketganlar.

Alloh taola Uvays al Qaroniy roziyallohu anhudan rozi bo'lsin.

FOYDALANILGAN ADABYOT VA INTERNET SAHIFALAR

1. Internet manba:https://uz.wikipedia.org/wiki/Uvays_Quroniy
- 2.Mustafo Najotiy Bursali Xamidullo Beruniyning "Xazrati Uvays Qaroniy" asari
- 3.Internet manba.<https://islom.ziyouz.com>